



UDK: 726.3(575)

Mirvoxid NURMUXAMMEDOV,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

NamDU dotsenti, t.f.n A.Erqo'ziyev taqrizi asosida

MIR ARAB MADARSAH: ARCHITECTURAL AND SPIRITUAL SIGNIFICANCE

Annotation

This article covers the history, architectural structure, religious and educational activities, and role of the famous Mir Arab Madrasah in Bukhara. It provides information about the political and religious situation at the time of the madrasah's foundation, as well as the role of this place of learning in the spiritual life of the Uzbek people. The article is based on historical sources and reveals the unique role of the Mir Arab Madrasah in the national heritage.

Key words: Bukhara, Central Asia, Abdullah Yamani, Sayyid Abdullah, Naqshbandiyya, Khoja Ahrar Vali, Vasifi, Kalon, Samarqand, Poyi-Kalon, Shah Murad, Haydar, Barak Khan.

МЕДАРСЕ МИР АРАБ: АРХИТЕКТУРНОЕ И ДУХОВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация

В статье рассматриваются история, архитектурное строение, религиозная и образовательная деятельность, а также роль как научной школы знаменитого медресе Мир Араб в Бухаре. В нем содержится информация о политической и религиозной ситуации на момент основания медресе, а также о месте этого учебного заведения в духовной жизни узбекского народа. Статья написана на основе исторических источников и раскрывает уникальное место медресе Мир Араб в национальном наследии.

Ключевые слова: Бухара, Средняя Азия, Абдулла Ямани, Сайид Абдулла, Накшбандия, Ходжа Ахрар Вали, Васифи, Калон, Самарканд, Пойи-Калон, Шах Мурад, Хайдар, Барак Хан.

MIR ARAB MADRASASI: ME'MORIY VA MA'NAVIY AHAMIYATI

Ushbu maqolada Buxoro shahridagi mashhur Mir Arab madrasasining tarixi, me'moriy tuzilishi, diniy-ma'rifiy faoliyati hamda ilmiy maktab sifatidagi o'rni yoritilgan. Unda madrasa bunyod etilgan davrdagi siyosiy va diniy holat, bu ilm maskanining o'zbek xalqining ma'naviy hayotidagi tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Maqola tarixiy manbalar asosida tayyorlangan bo'lib, Mir Arab madrasasining milliy merosdagi beqiyos o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Markaziy Osiyo, Abdulla Yamani, Sayyid Abdulloh, Naqshbandiya, Xo'ja Ahror Valiy, Vosifiy, Kalon, Samarqand, Poyi-Kalon, Shohmurod, Haydar, Baroqxon.

Kirish. O'zbekiston hududi qadim-qadimdan boy tarixiga ega, o'ziga xos madaniyat yaratgan o'lkalardan biri hisoblanadi. Bu yurt zaminida asrlar davomida ko'plab shaharlar barpo etilgan, turli davrlarda ilm-fan, din va hunar rivoj topgan. Mana shu tarixiy taraqqiyotning tirik guvohlari sifatida hozirgacha saqlanib qolgan me'moriy obidalar xalqimizning boy o'tmishi va ma'naviy dunyosidan so'zlab turadi. Har bir gumbaz, har bir tosh nafislik va ustalik bilan barpo etilgan bo'lib, o'tmish san'atkorlarining bilim va mahoratini ko'rsatadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi shaharlarda yuzlab madrasalar qad ko'targan bo'lib, ular nafaqat diniy ta'lim berilgan joy, balki, ilm, odob, ma'naviyat tarbiyalangan maskanlar sifatida ajralib turgan. Ayniqsa, islom dini kirib kelgach, bu kabi muassasalar xalq hayotining ajralmas qismiga aylangan. Shunday yodgorliklardan biri – Buxoroning markazida joylashgan, XVI asrda qurilgan Mir Arab madrasasidir. O'zining mustahkam tuzilishi, bezakli gumbazlari, ma'rifatparvarlik ruhi bilan bu madrasa asrlar davomida minglab talabalarni tarbiyalab, diniy hamda ilmiy hayotda muhim o'rin egallagan. Hozirgi kunda ham bu obida o'z tarixiy va madaniy qiymatini saqlab qolgan holda, xalqimiz merosining muhim qismini tashkil etadi. Ushbu maqolada Mir Arab madrasasining yaratilish sabablari, uning me'moriy tuzilishi, tarixiy ahamiyati va bugungi kundagi holati haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi – mazkur yodgorlik orqali

xalqimizning o'ziga xos madaniyati va tarixiy tafakkurini yoritishdir.

Me'morchilik san'atning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniy-ma'naviy mavqeni o'zida aks ettiradi, xalqning turmush tarzi, estetik qarashlarini namoyon etadi. Shuning uchun bu san'at haqiqiy ravishda tarixiy voqealar solnomasi, davr oynasi sifatida e'tirof etiladi. Inson paydo bo'lgandan boshlab, u o'zi uchun yashaydigan, yog'in-sochinlardan, sovuq va issiqlikdan muhofaza etadigan joylar qurgan. Ular dastlab oddiy ko'rinishda: toshlardan, yog'och va loylardan ishlangan. Davr o'tishi bilan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida me'morchilik san'ati ham rivojlandi va texnikaviy tomondan o'sgan. Me'morchilikdagi go'zallik va nafosat tasviriy va amaliy san'atdagi shu tushunchadan ancha murakkab. Chunki me'morchilik bir vaqtning o'zida ham moddiy, ham ma'naviy tomoni bilan mavjuddir [1]. Mana shunday ta'rifga misol bo'la oladigan me'morchilik durdonasiga Mir Arab madrasasini kiritishimiz mumkin. Chunki, Mir Arab madrasasi bir vaqtning o'zida ham go'zalligi bilan, ham ma'naviy bilim beradigan maskan sifatida yurtimiz me'morchiligida ardoqlanadi.

Mir Arab madrasasi nafaqat Buxoroning, balki butun Markaziy Osiyoning me'moriy durdonalaridan biridir. Uning nafis koshinlari, muvozanatli tuzilishi va ramziy bezaklari o'z davrining yuksak me'morlik darajasidan darak beradi. Bu

obida xalqimizning ilm-fanga, diniy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tiborining yorqin timsolidir. Ayniqsa, madrasa asrlar davomida diniy ilmlar beshigi sifatida xizmat qilganligi bilan ajralib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixdan ma'lumki, ko'p asrlar davomida Buxoroda islom dinini o'rganuvchi ahli toliblar tarbiyalanib, diniy bilimlar olganlar. Ayniqsa, feodalizm davrida Buxoroda ko'plab monumental inshootlar qad rostlagan. Jumladan, XVI asrning o'zida o'ndan ortiq madrasalar barpo etilgan bo'lib, ularning aksari bizgacha saqlanib qolgan. Bu davrda Buxoroning va butun Markaziy Osiyoning siyosiy va ma'naviy hayotida islom dinining roli oshgan. Ko'pchilik dinga sig'inuvchi xizmatchilar yirik feodallardan bo'lgan. Ular o'zlarini ko'rsatish, borliklarini bildirish, nomlarini ko'rsatish va ulug'lash maqsadida masjid va madrasalar qurdirganlar. Ana shunday madrasalar qatoriga Mir Arab madrasasi ham kiritishimiz mumkin. Mir Arab madrasasi 1520-1536-yillarda Mir Arab nomi bilan tanilgan Abdulla Yamaniy rahbarligida qurilgan[2]. Madarasaning qurilishi Buxoro xonligi hukmdori Ubaydullaxon(1533-1540) va uning piri Mir Arab nomlari bilan bog'liq. Tarixiy manbalarda Mir Arab ismi bilan tanilgan shaxs turli nomlar bilan tilga olinadi: Sayyid Abdulloh, Abdulloh Yamaniy, Mir Arab va ba'zida Shayx Muhammad ibn Said deb ham uchraydi. Bular aslida bitta shaxs – Yamanlik mashhur sufiy va din arbobi, Buxoroda faoliyat yuritgan, Naqshbandiya tariqatining taniqli vakilidir. Uning bunday nomlar bilan atalishini quyidagicha izohlash mumkin: Abdulloh Yamaniy – bu uning kelib chiqishiga ishora: Yamandan kelgani uchun shu tarzda atalgan. Sayyid Abdulloh – bu esa uning payg'ambar avlodidan (sayyidlardan) ekanini bildiradi. "Sayyid" unvoni shunday zotlarga berilgan. Mir Arab – bu esa faxriy unvon sifatida ishlatilgan. "Mir" – amir, hurmatli kishi degani, "Arab" esa yana kelib chiqishini bildiradi.

Sayyid Abdulloh Yamaniy Temuriylar davrida 22 yoshida ilm olish maqsadida Yaman mamlakatidan Movarounnahrda keladi. Bir necha yil o'tgandan so'ng u Samarqandda qolib, Xoja Ahror Valiy xizmatiga kirgan. Shu tariqa u naqshbandiya tariqati rahnamosining yirik izdoshlaridan biriga aylangan. Keyinchalik ustozining ko'rsatmasi bilan Buxoroga borgan hamda mustaqil holda ko'plab toliblarga irshod bilan mashg'ul bo'lgan, ya'ni ularni

ilm va ma'naviyat yo'liga boshlagan, xalqni hidoyatga chorlagan.

Vosifiyning "Badoe' ul vaqoe' " asarida yozilishicha, Shayboniylar o'zbek sulolasi vakili Ubaydullaxon Sayyid Abdulloh Yamaniyning eng sadoqatli muridi va do'stlaridan bo'lgan. Mir Arab Turkistonning, Savron degan joyida korizlar qazdirib, suv chiqargan va ko'p joylarni obod qilgan. Shofirkon, Vobkent, G'ijduvonda (Buxoro viloyatida) kanallar qazdirib, bog'lar barpo etgan. Shofirkondagi ushbu ariqni Sultonxon arigi deb nomlagan. Zero Mir Arab uni Ubaydullaxon ibn Sultonxon nomiga qo'ygan. Bu ariq hozirgi kungacha saqlanib qolgan, yana Shofirkon tumanida Mir Arab Qal'asi ham mavjud. U ziyoratgoh Mir Arabning qadamjolaridandir[3]. Ko'rishimiz mumkinki, Mir Arab nafaqat diniy rahnamo sifatida, balki obodonchilik va bunyodkorlik ishlari bilan ham shug'ullanib, o'z zamondoshlari uchun ibratli shaxs bo'la olgan.

Ubaydullaxon davrida Buxoro gullab-yashnadi, shahar o'ziga xos me'moriy uslubga ega bo'ldi. 1514-yilda Kalon jome masjidi qayta tiklandi. U masjid dastlab Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon davrida (1102–1130) qurilgan bo'lib, 1404-yilgacha Movarounnahrda eng yirik masjidlardan biri sanalgan. Ubaydullaxonning buyrug'i bilan Kalon masjidining old qismi katta peshtoq bilan bezatildi va yangi mehrob o'rnatildi.

1530-yillarda Buxoroda, Samarqanddagi Ulug'bek madrasasidan kattaroq bo'lgan Miri Arab madrasasining qurilishi boshlandi. Ushbu madrasa Yamanda tug'ilgan arab olimi, Ubaydullaxonning ruhiy ustoz Amir Abdulloh al-Yamaniy sharafiga nomlangan.

Miri Arab madrasasi bugungi kunda Kalon masjidi va minorasini, shuningdek, Amir Olimxon madrasasini o'z ichiga olgan Poyi-Kalon me'moriy ansamblining bir qismidir[4]. Miri Arab madrasasi bugungi kunda Buxoro shahrining markaziy qismida joylashgan yirik me'moriy ansambl — Poyi-Kalon tarkibiga kiradi. Ushbu ansambl o'z ichiga Kalon minorasi (1127), Kalon masjidi, Miri Arab madrasasi (1530-yillar) va Amir Olimxon madrasasini ham o'z ichiga oladi. Madrasa Poyi-Kalon ansamblining asosiy diniy-ma'rifiy markazlaridan biri bo'lib, islomiy ta'limotlar, hadis ilmi va tasavvufiy tarbiya berish markaziga aylangan.



1-rasm. Poyi-Kalon me'moriy ansamblining umumiy ko'rinishi.

Mazkur majmua Buxoroning tarixiy yodgorliklaridan eng mashhurlaridan biri hisoblanadi va u O'zbekiston hamda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan xalqaro madaniy meros sifatida e'tirof etilgan. Bugungi kunda Poyi-Kalon ansambl i O'zbekistonning muhim sayyohlik markazi bo'lib, u orqali shayboniylar diniy-ma'rifiy hayot, me'moriy tafakkur va san'at yutuqlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Madrasaning old qismi Kalon minorasi tomonga qaragan. Madrasaga kiraverish qismi ulug'vor va chuqur bezatilgan peshtoq bilan ajralib turadi, old tomonida esa ulkan minoralar joylashgan[5]. Bu davrda amalga oshirilgan qurilish va ta'mirlash ishlari Ubaydullaxonning diniy qadriyatlar, ilm-

ma'rifat va me'morchilikka bo'lgan yuksak e'tiborini yaqqol ko'rsatadi. Ayniqsa, Mir Arab madrasasining barpo etilishi Buxoroni butun islom olamida e'tiborli diniy-ta'lim markaziga aylantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Kalon jome masjidi va uning atrofida vujudga kelgan Poyi-Kalon me'moriy ansambl i esa Buxoroning tarixiy markazida noyob me'moriy muvozanat va badiiy uyg'unlik namunasi sifatida shakllandi. Bu ansambl Buxoroni nafaqat diniy va siyosiy, balki madaniy-ma'rifiy jihatdan ham yuksaltirgan asosiy obidalar majmuasidir.

Manbalarda Ubaydullaxon janglarda qo'lga kiritgan ayrim g'alabalarining asosiy sababchisi sifatida uning piri –

Sayyid Abdulloh Yamaniy ko'rsatiladi. Shu sababdan ham Ubaydullaxon janglardan so'ng qo'lga kiritgan boy o'ljalardan piriga katta tuhfa in'om etgan. Sayyid Abdulloh Yamaniy esa ularga o'z mablag'laridan yana qo'shib, bu boylikni madrasa qurishga sarflagan. Natijada, bu ilm maskani Mir Arab madrasasi nomi bilan mashhur bo'lgan. Ba'zi mualliflarning fikricha, ushbu madrasaning tarixini Sayyid Abdulloh Yamaniyning o'zi chizgan[6].

Bu ma'lumotlar asosida Mir Arab madrasasining qurilishi faqat Ubaydullaxonning siyosiy istagi bilan emas, balki diniy va ma'naviy sabablar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ubaydullaxon o'z piri Sayyid Abdulloh Yamaniyning juda hurmat qilgan va janglardagi g'alabalarini aynan uning duo va yordami bilan bog'lagan. Shuning uchun janglardan keyin qo'lga kiritilgan boyliklardan unga tuhfa qilgan. Sayyid Abdulloh Yamaniy esa bu boylikni yana o'z mablag'i bilan to'ldirib, madrasa qurilishiga sarflagan. Bu voqea o'sha davrda din vakillari nafaqat ruhiy yetakchi, balki ilm-ma'rifatni rivojlantirishda ham faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Ayrim mualliflar bu madrasaning rejasini ham aynan Sayyid Abdulloh Yamaniyning o'zi chizganini ta'kidlaydi. Bu esa uning me'morchilik sohasida ham bilimga ega bo'lganini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mir Arab madrasasi ya'ni "Arab amiri madrasasi" XVI asrda, Buxoro shahridagi Kalon minorasining sharqiy tomonida qurila boshlangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, madrasaning qurilish xarajatlarini qoplash uchun Ubaydullaxon o'z yurishlarida asir olgan 3000 nafar forsni qul sifatida sotgan. Boshqa manbalarda esa aytilishicha, u o'zining harbiy yurishlaridan tushgan boy o'ljalarni ustoziga tuhfa qilgan va Shayx Abdulloh Yamaniy esa bu mablag'ni madrasa qurilishiga sarflagan[7]. Bu madrasa, o'z zamonasida nafaqat ilm maskani sifatida, balki diniy-ma'naviy timsol sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Madrasaning binosi Qur'oni Karimdagi 114 sura soniga mos ravishda 114 ta hujraga ega tarzda loyihalashtirilgan. Bu esa qurilishda diniy ramziy ma'nolar, islomiy tafakkur va an'alarga alohida e'tibor qaratilganidan dalolat beradi. Binoning asosiy qismi – peshtoqi esa o'z davrining mohir xattoti Mullo Mir Ali Kotib Buxoriy tomonidan yozilgan yozuvlar bilan bezatilgan. U haqida tarixchi Sharafiddin Roqimiy o'zining "Tarixi tomm" asarida yuksak baho berib, uni xattotlik san'atida tengsiz deya e'tirof etadi [8].

Bu baytda shoir Mir Arab madrasasining yuksak maqomini madh etadi. Unga ko'ra, Mir Arab – nafaqat mahalliy, balki butun Ajam (ya'ni Eron va forsiy madaniyat olami) faxridir. U qurdirgan madrasa oliy darajadagi, ajoyib ilm maskani sanaladi. Baytning eng ajablanarlisi shundaki, unda madrasaning qurilgan yili ham yashirin shaklda keltirilgan. Ya'ni, bu satr abjad usulida yozilib, Hijriy 942-yil (milodiy 1535–1536-yillar) sanasini bildiradi. Bu esa

madrasaning qadimiyligi va tarixiy ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, Mir Arab madrasasi XVI asr Buxorosi uchun faqatgina diniy ta'lim maskani emas, balki ilm-ma'rifat tarqatuvchi muhim markaz bo'lgan. Shayboniylar davrida barpo etilgan bu madrasa Buxoro amirligidagi eng obro'li bilim dargohlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, uning arxitektura uslubi va ichki bezaklari Sharq me'morchiligidagi nafislik va simmetriyaning yorqin namunasi hisoblanadi.

Mir Arab madrasasi o'z davrida Buxoroning eng nufuzli ilmiy va diniy markazlaridan biri bo'lgan. U yerda nafaqat Qur'on ilmlari, balki tafsir, hadis, fiqh, mantiq, adabiyot va falsafa kabi fanlar chuqur o'rgatilgan. Abu Tohirxojaning yozishicha, Shohmurod yoshligida aynan shu madrasada bir necha yil tahsil olgan, u boshqa fanlar qatorida tasavvuf ilmini ham egallagan. So'fiyona turmush tarzi esa uning hayoti mazmuniga aylangan[9]. Bu holat Shohmurodning keyinchalik davlat boshqaruvida halollik, adolat va ilohiylikka yaqinlik tamoyillarini ustuvor tutishiga asos bo'lgan. Bu ma'lumot shuni ko'rsatadiki, Mir Arab madrasasi nafaqat an'anaviy diniy bilimlar, balki ichki poklanish va ruhan tarbiya maktabi ham bo'lgan. Shohmurodning "Amir Jannatmakon" laqabini olishi ham uning tasavvufiy ruhda hayoti bilan bevosita bog'liq. Ushbu madrasaning talabalari, xususan Amir Haydar singari hukmdorlar ham, bu yerda ilm tahsil qilib, yurt boshqaruviga o'ziga xos ma'naviy va ilmiy tayyorgarlik bilan kirib kelgan.

Mir Arab madrasasi me'moriy jihatdan o'z davrining eng yuksak namunalaridan biri sanaladi. Uning umumiy hajmi 68,5 x 51,8 metrni, markaziy hovlisi esa 35,4 x 31,3 metrni tashkil etadi. To'rtburchak shakldagi hovli atrofida ikki qavatli, oldi ravoqli hujralar qurshab olgan bo'lib, bu tuzilma nafaqat madrasaning o'quv salohiyatini, balki estetik go'zalligini ham namoyon etadi. Tomonlar o'rtasida joylashgan peshtoqli darsxonalar hovlining mahobatini oshirib, bino markazida diqqat markazini yaratgan. Ayniqsa, janubiy peshtoqdagi saqlanib qolgan yulduzsimon naqshlar me'moriy bezaklarning naqadar yuqori did bilan ishlanganidan dalolat beradi. Bu bezaklar nafaqat badiiy go'zallikni, balki diniy va ruhiy ramziy ma'nolarni ham o'zida mujassam etadi. Rivoyatlarga ko'ra, madrasa poydevori chuqur kovlanib, tog' toshlari bilan mustahkamlangan. Qurilish paytida yomg'ir va qor suvlarini zarar yetkazmasdan chiqarish maqsadida yerosti suv yo'llari – tazarlar barpo etilgan. Bu tizim orqali suvlar shahar qo'rg'onidan tashqariga oqizilgan[10]. Bu esa, qurilishda suv muhofazasi va muhandislik rejasining ilg'or darajada bo'lganidan dalolat beradi. Yuqoridagi jihatlar shuni ko'rsatadiki, Mir Arab madrasasi faqat ilm o'chog'i bo'lib qolmasdan, balki o'z davrining muhandislik, me'moriy va san'at sohalaridagi yutuqlarini mujassamlashtirgan yuksak madaniy inshoot bo'lgan.



2-rasm. Mir Arab madrasasining old tomonidan ko'rinishi.

Afsuski, sho'rolar davriga kelib, 1920-1930 yillarda "madaniy inqilobchilar" tomonidan madrasalarning ko'pchiligi buzib tashlandi. Omon qolgan ayrim maktab va madrasalar birin-ketin yopila boshladi. Vaqf mulklari madrasalar tasarrufidan olinib, ularning faoliyatiga nuqta qo'yildi. Keyinchalik, ya'ni XX asrning 40 yillaridagi siyosiy vaziyat tufayli ichki siyosatda dinga nisbatan ba'zi yengilliklar berishga harakat qilindi. Buning natijasida 1945 yil 10 oktabrda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi qoshida diniy madrasa ochilishiga ruxsat berildi. Yuqoridagi buyruq asosida 1945 yil 29 noyabrda Diniy boshqarma ixtiyoriga ikkita diniy muassasa ochilishiga ruxsat berilganligi to'g'risida qaror qabul qilinib, Toshkent shahridagi Baroqxon va Buxoro shahridagi sobiq Miri Arab madrasasi faoliyatiga ruxsat berildi. Miri Arab madrasasi 1946 yilda 30 ta talaba bilan, Baroqxon madrasasi esa 1956 yildan o'z faoliyatini boshladi[11].

Hozirgi kunga kelib Miri Arab madrasasida 4 yil davomida diniy fanlar bilan bir qatorda umumta'lim fanlari ham o'qitiladi. Bilim yurtida 30 nafar ma'lumoti oliy va malakali o'qituvchi-mudarrislar 130 ga yaqin talabalarga dars berib kelmoqdalar. Madrasada talabalarning ilm olish va yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Xulosa va takliflar. Mir Arab madrasasi o'zbek xalqining ma'naviy hayoti, ilm-fan va hunar rivojida muhim o'rin egallagan tarixiy obidadir. U o'z davrida nafaqat diniy bilim beruvchi maskan, balki odob-axloq, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi qadriyatlar singdirilgan tarbiya o'chog'i bo'lgan. Me'morchiligi, bezaklari va tuzilishi orqali u xalqimizning didi, iste'dodi va bunyodkorlik salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Miri Arab madrasasi O'rta Osiyo islomiy madaniyati va ta'lim tizimining yuksak namunasi sifatida ajralib turadi. Bu muqaddas maskan nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunga qadar musulmon dunyosining yirik ilmi va ma'rifat markazlaridan biri bo'lib kelmoqda. Madrasada yetishgan olimlar va ulamolar o'z ilmiy meroslari bilan islomiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shganlar. Mir Arab madrasasining me'moriy qiyofasi, undagi naqshlar va yozuvlar esa Sharq me'morchiligi yuksak darajada rivojlanganini yaqqol namoyon etadi. Ushbu madrasa tariximiz, dinimiz va milliy o'zligimizni anglashda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan ham uni asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev Sh. Arxitektura tarixi. –Toshkent, "Cho'lpon" nashriyoti, 2018. –276 b.
2. Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik. – Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2010. – 366 b.
3. Sadridin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyorotgohlari. –Buxoro, "Durdona" nashriyoti, 2012. –302 b.
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Poi_Kalon
5. <https://uzbekistan.travel/uz/o/mir-arab-madrasasi/>
6. Jumanazar A. K. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. –Toshkent, "Akademnashr" nashriyoti, 2017. –592 b.
7. https://www.centralasia.travel/en/countries/uzbekistan/places/bukhara/poi_kalyan?utm_source=chatgpt.com
8. <https://www.sayyoh.com/uz/diqqatga-sazovoz-joylar/>
9. Zamonov A, Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi. –Toshkent "Tamaddun" nashriyoti, 2022. –184 b.
10. <https://legacy.uz/uz/mir-arab-madrasasi-haqida-eshitganmisiz/>
11. <https://abt.uz/blog/buxorodagi-mir-arab-oliy-madrasasi-tarixi-haqida-nimalarni-bilasiz>